

MAXTUMQULI ASARLARI BADIYATI – TARJIMALAR TALQINIDA

Feruza Sapayeva,

Ajiniyoz nomidagi NDPI O'zbek dabiyoti kafedrasida professori, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada Maxtumquli asarlarining o'zbekcha tarjimasi haqida so'z yuritiladi. Xususan, Maxtumquli she'rlarining shakl va mazmun mushtarakligi, tarjimonlarning so'z qo'llash mahorati tahlil qilinib, badiiy tarjimada so'zning mavqei xususida bahs yuritiladi.

***Kalit so'zlar:** she'r, radif, tarjimon, tarjima, she'riy takror, bayt va band, ma'no, shakl va mazmun, so'z, radifli she'r, radifsiz tarjima qilish, matn, shoir, Maxtumquli, turkman tili, o'zbek tili.*

РЕЗЮМЕ

В статье говорится о переводчиках Махтумкули на узбекский язык. В этой статье на примере узбекских переводов стихотворений Махтумкули анализируется мастерство применения слов переводчиков, а также ведется полемика о статусе слова в художественном переводе.

***Ключевые слова:** стихотворение, радиф, переводчик, перевод, поэтическое повторение, строфа и пункт, смысл, форма и содержание, слово, стихотворение с радифом, перевод без радифа, текст, поэт, Махтумкули, туркменский язык, узбекский язык.*

Shoir haqiqati: Ulug' turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumquli 1724 yili Atrek daryosi bo'yidagi Hojigovshan ovulida tug'ilgan. Uning ilk ustozlari Ozodiy taxallusi bilan she'rlar yozgan otasi Davlatmamat edi. Oilada xat-savodini chiqargan bo'lajak shoir taxminan olti yoshidan ovul maktabida – Niyozsolih domla qo'lida o'qiy boshlaydi. O'tkir zehni va tirishqoqligi bilan o'quvchilar orasida alohida ajralib turgan Maxtumquli keyin Qiziloyoqdagi Idris bobo madrasasida tahsilini davom ettiradi. So'ng Xivaning Sherg'ozixon madrasasida ilmini kamolga yetkazadi. Shuningdek, bir muddat Buxorodagi Ko'kaldosh madrasasida ham o'qigani haqida ma'lumotlar mavjud. Maxtumquli badiiy so'zni yuksak qadrlagan va ijodiy qobiliyatga ega ma'rifatli oilaga mansub. Atrek janubidagi viloyatda tug'ilgan bobosi (voqean, uning ismi ham Maxtumquli bo'lgan – shoirga bobosining otini berishgan) tirikchilik vajidan turkmanlarning go'rko'z qabilasiga ish izlab keladi va urug' boshliqlaridan birining qo'lida yollanib ishlaydi. Ma'lum muddat o'tib, xo'jayin uni o'z jiyaniga uylantirib qo'yadi va u alohida xo'jalikning boshlig'iga aylanadi. Dehqonchilik qilish bilan birga, otga to'qim tikish, qamchi to'qish, yugan va ayil yasash orqali daromadini muttasil oshira borib, Maxtumquli Yonachi (to'qimdo'z) nomi bilan dovuq taratadi. Bo'sh qolgan vaqtlarida u qo'shiqlar to'qigan va ulardan biri bizgacha yetib kelgan. Otasi Davlatmamat ham alohida qobiliyati bilan ajralib turar edi. U boshlang'ich ma'lumotni ovulda olib, so'ng Xiva madrasalarida o'qishini davom ettiradi.

Ovulga qaytgach, bolalarni o‘qitish bilan birga, qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanadi. Agar bobosi uchun she‘r to‘qish shunchaki havas bo‘lgan bo‘lsa, otasi haqiqiy shoir bo‘lib yetishadi. U Ozodiy taxallusi bilan ko‘plab qo‘shiq va g‘azallar yaratadi. Uning qariyb olti ming misradan iborat pand-nasihati mazmunidagi «Vaz‘i Ozod» («Ozod vaz‘i») nomli dostoni saqlanib qolgan. Bu asarlar Ozodiyning forsiy (voqean, u yaxshigina shohnomaxon bo‘lgan) va turkiy adabiyotdan, xususan, Alisher Navoiy ijodidan yetarli darajada xabardorligini ko‘rsatadi. Davlatmamatning oilasi katta bo‘lib, Maxtumorquli uning uchinchi o‘g‘li hisoblanadi. Bo‘sh vaqtlarida poda boqib, otasiga ko‘maklashgan Maxtumorquli to‘qqiz yoshidan she‘r mashq qila boshlaydi. Turkman xalqi tarixining eng notinch va og‘ir davrida yashab o‘tgan Maxtumorquli oilaviy hayotda ham halovat topmadi. Chovdurxon boshchiligida Afg‘onistonga vakil qilib jo‘natilgan akalari Abdulla va Mamatsafo dushmanlar tomonidan shafqatsiz o‘ldiriladi. Katta xonadonning butun og‘irligi Maxtumorquli yelkasiga tushadi. U mudarrislik qilish, ota-bobosidan meros yonachilik kasbini davom ettirish bilan birga, temirchilik va zargarlik hunarlarini ham egallaydi...

Shoir she‘rlarining tarjimalari talqinida: Mustaqillik yillarida Maxtumorquli she‘rlarining yangi tarjimalari paydo bo‘ldi. Iste‘dodli shoir va tarjimon Muzaffar Ahmad ulug‘ turkman shoirining yetmishga yaqin she‘rini tarjima qilib, 1995 yili “Saylanma” nomi bilan, va turli yillarda “Elga yoydim nasihat”, “Sevmisham sani” nomli she‘riy to‘plamlarini nashr ettirdi. Toshhovuzlik maktab o‘qituvchisi, marhum Olim To‘rayev qardosh xalq so‘z san‘atkorining qirq beshta yangi she‘rini o‘zbekchallashtirib, “Yor, jamoling ko‘rgali” nomi ostida e‘lon qildi. Taniqli shoir va mohir mutarjim Mirzo Kenjabek esa buyuk so‘z san‘atkorining 170 ta, asosan ilgari hukmron mafkura yo‘l qo‘ymagan diniy-tasavvufiy mazmundagi she‘rlarini ilk bor o‘zbekchallashtirib, chop qildirdi. Bu kitob ham “Saylanma” deb atalib, undan mutarjimning “Maxtumorquli – valiy shoir” degan kirish maqolasi ham o‘rin olgan. Bundan tashqari, turli nashrlarda Jumaniyoz Sharipov, Jumaniyoz Jabborov, Muhammad Ali, Oxunjon Safarov, Nosir Muhammad va Abdunabi Hamro kabi shoirlarning ham Maxtumorquli she‘rlaridan qilgan tarjimalari e‘lon qilindi. E.Ochilov Maxtumorquli she‘rlarining J.Sharipov, J.Jabborov, M.Kenjabek va M.Ahmadlar tomonidan o‘zbek tiliga o‘girilgan eng yaxshi tarjimalarini saralab, shu bilan birga, o‘zi ham shoirning 45 ta she‘rini tarjima qilib, “Dunyo o‘tib boradir” nomi bilan “Sharq mumtoz she‘riyati durdonalari” ruknida e‘lon qilindi. Va yana mutarjim E.Ochilov o‘z tarjimalarini davom ettirib, Maxtumorqulining 700 dan ziyod she‘rini “Bulbul nolasi” tarjima qildi. Ulardan guldasta sifatida 150 ta she‘rdan iborat “Ustozingdan ayrilma” to‘plamini chop ettirdi. Shuningdek, mutafakkir shoirning odob-

axloq yo‘nalishidagi pand-nasihatga yo‘g‘rilgan she‘r va misralari asosida ilk marta uning «Hikmatlar» to‘plamini nashr qildirdi. Shuningdek, 2013 yilda E.Ochilov tarjimasida Maxtumquli tavalludining 290 yilligi munosabati bilan uning 400 ga yaqin she‘rlarini o‘z ichiga olgan «Asarlar» to‘plami ham bosilib chiqdi. 2008 yili Abdumo‘min Jumayev va Jumanazar Zulpiyevlar shoir she‘rlarining yangi tarjimasini amalga oshirdilar.

Qardosh xalqlar adabiyoti tarixida atoqli turkman so‘z san‘atkori Maxtumquli o‘ziga xos o‘rin tutadi. Uning asarlari dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilingan. Zero, Maxtumquli o‘zbek xalqi qalbiga yaqin bo‘lgani uchun ham o‘zbekning o‘z milliy shoiriga aylanib ketdi. Shoir Xivadagi Sherg‘ozixon madrasasida tahsil olgani bois, umrining muayyan qismi Xorazmda o‘tdi.

Maxtumquli xalq ichida mashhur bo‘lganidan u haqida ko‘plab rivoyatlar to‘qildi, she‘rlari tildan tilga o‘tib, qo‘shiqchilar repertuaridan mustahkam o‘rin oldi. Shu bilan birga shoirning she‘rlari keng ommaga yetkazilishi uchun qo‘lyozmalari ko‘plab kotiblar tomonidan ko‘chirildi. Iste‘dodli hofiz Komiljon Otaniyozov: “Xorazmni shoirning ikkinchi yurti” deb bemalol aytish mumkin”, degan fikri bag‘oyat o‘rinlidir. Aslida bu ta‘rif miqyosini kengaytirib: “O‘zbekiston – Maxtumqulining ikkinchi vatani” deyishda ham aslo mubolag‘a yo‘q. Keyingi davrda shoir ijodiga qiziqish yanada kuchayib, uning she‘rlari o‘n besh nafar tarjimon tomonidan o‘zbek tiliga o‘girildi. Bu holat, birinchidan, o‘zbek o‘quvchilari orasida Maxtumquli she‘rlariga ma‘naviy ehtiyojning naqadar katta ekanini, ikkinchidan esa, she‘riyat ixlosmandlari butun borlig‘ini xalq diliga yaqin ohanglarda doston qilgan shoirni qanchalar o‘zlariga yaqin olishlarini ko‘rsatadi.

Maxtumquli qadimdan o‘zbek xalqi orasida mashhur bo‘lgan. Adabiyotshunos olim Hamdam Abdullayevning ma‘lumot berishicha, shoir Xivadagi Sherg‘ozixon madrasasida tahsil olgan XVIII asrning 60-70-yillaridan uning asarlari xalq orasida keng tarqalgan edi¹. Maxtumquli she‘rlarining ilk o‘zbekcha tarjimalari u hayotligi paytidayoq Xorazmdan xalq baxshilari va hofizlari tomonidan ijodiy ravishda o‘zbekchalashtirish shaklida yuzaga kelgan². Umuman olganda esa, XX asr o‘rtalarigacha ham “Maxtumqulining xalqona uslub va sodda tildagi she‘rlari o‘zbeklarga ham tushunarli bo‘lganidan ularni tarjima qilishga ehtiyoj sezilmagan, hatto 1960 yili nashr etilgan “O‘zbek adabiyoti” majmuasining to‘rtinchi jildi ikkinchi kitobida ham Maxtumquli asarlari asl nusxasida berilgan”³.

¹ Абдуллаев Х. Махтумқули ва ўзбек адабий муҳити. – Т.: Фан, 1983. – Б. 30.

² Тайлакова М., Сапаров М. Махтумқули асарлари тилининг ўзбекча таржимасига баъзи бир қайдлар. Ўзбек филологияси масалалари (Илмий асарлар тўплами). – Т.: Фан, 1990. – Б. 46.

³ Очилов Э. Ўзбекистонда Махтумқули ҳаёти ва ижодининг ўрганилиши // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари (Илмий мақолалар тўплами). – Наманган, 2009. – Б. 59.

“Go‘zal Sherg‘ozi” she‘ridan ma‘lum bo‘lishicha, u Xivada tahsil olayotgan davrida birin-ketin otasi va onasidan judo bo‘lgan:

Bag‘ringda ilm olib, komil bo‘libman,
G‘aribman – otamdan yetim qolibman,
Ka‘bamdan – onamdan judo bo‘libman,
Ketar bo‘ldim, xush qol, go‘zal Sherg‘ozi...

O‘zbek-turkman adabiy aloqalarini mustahkamlanishida, o‘zbek tarjimashunosligi masalalarini tadqiq qilishda, shuningdek, o‘zaro yaqin tillardan she‘riy asarlar tarjimasi o‘rganilishining kun tartibiga qo‘yilishida Maxtumquli adabiy merosiga doir manbalarning o‘ziga xos o‘rni bor...

Tarjima she‘rlar xususida: Maxtumquli asarlarining tarjimonlari nihoyatda ko‘p. Ular o‘z faoliyati davomida ko‘lam va hajmiga ko‘ra turlicha tarjima mahsullarini taqdim qilishdi. Albatta, ulardan qaysi biri atoqli turkman so‘z san‘atkorining birgina (M. Shayxzoda, M. Ali), qaysi biri bir necha (J.Jabborov, O.Safarov, N.Muhammad, M.Pirriyev, A.Hamro) she‘rini o‘zbekchallashtirgan bo‘lsa, boshqalari alohida she‘riy to‘plamlarini o‘z tarjimalarida (J.Sharipov, M.Ahmad, O.To‘rayev, M.Kenjabeq, A.Jumayev, J.Zulpiyev, E.Ochilov, M.Azim) e‘lon qilishdi.

Endi yuqorida qayd qilingan o‘n besh nafar tarjimon safiga yana bir Maxtumquli she‘rlari tarjimoni ko‘paygani quvonarli. Qoraqalpog‘iston xalq shoirasi Guliston Matyoqubova Maxtumquli she‘rlari tarjimasi bo‘yicha o‘z izlanishlarini olib bordi va Maxtumquli tavalludining 300 yilligi munosabatiga bag‘ishlab 526 ta she‘rni o‘z ichiga olgan “Maxtimquli” 2 jildlik (2 kitob) to‘plamlarini nashr ettirdi. Taniqli maxtumqulishunos Ustoz K.Quramboyev Guliston Matyoqubova ijodi va tarjimalariga yuqori baho beradi, voqean mazkur kitob dastvarag‘idan joy olgan “Yangicha ohanglarda jilolangan tarjimalar” nomi bilan yozgan so‘zboshisida yozishicha, Shoiraning “Panoh”, “Navro‘zi olam derlar”, “Topmassan”, “Ko‘nglimga”, “Maxtimqulidan” kabi qator she‘rlari borki, ular Maxtumqulining ilhom chashmasidan bahramand bo‘lib yozilgan go‘zal she‘riyat namunalari. Shoiraning qaysi bir she‘riy to‘plamini varaqlab ko‘rmang, albatta, unda Maxtumquli she‘riyatidan qilingan tarjimalarga, yoki Maxtumquli merosiga naqadar ixlosmand, she‘riyatini qalbi mulkiga aylantirganidan darak beradi. Bu harakatlar, Maxtumquliga muxlislik, nazarimda shoirani Maxtumquli merosi bilan kitobxonlarni kengroq tanishtirish, tarjima ko‘lamini kengaytirishga ilhomlantirgan ko‘rinadi.

Nazarimizda, shoira Maxtumquli she‘rlarini qayta tarjima qilar ekan, har bir band va misradagi ma‘noni, so‘zlarning ta‘sirini, jozibasini saqlashga harakat qiladi. Birinchi

kitobda berilgan “Turkmanning”, “Ayrildim”, “YO jabbor”, “Navro‘zdan sani”, “Kechdi zamona”, “Chilimkash”, “Ketuvchi bo‘lma”, “Bo‘lmas”, “Toshni sindirar”, “Ot yonida bilinar” she‘rlari tarjimasiga ham ijodiy yondashib, salafini takrorlamaydi. Va ikkinchi kitobda “Dunyo hey”, “Yoronlar”, “Iqbol bo‘lmadi”, “Mol istar”, “Falakning”, “Xor-zor bo‘lding”, “El yaxshi”, “Dunyodir”, “Sayronda”, “Holimga mening” kabi qator qayta tarjima she‘rlarga mas‘uliyat bilan yondashib, imkon qadar asliyatdan uzoqlashmagan holda unga muvofiq tarjima yaratishga harakat qilgan.

Maxtumquli – ahli hol, ahli sir, ahli hikmat bo‘lgan orif zotdir. Ma’no olamida uning bir qancha aziz siymolar bilan irtiboti borligi anglashiladi. Bir qancha she‘rlarida u haq payg‘ambarlar, mashhur avliyolar bilan bog‘liq tushlarini farah va shukrona bilan bayon etadi. M.Kenjabeq hatto u ilmi laduniy sohibi bo‘lgan deb yozadi. Bizgacha Maxtumqulining 700 dan ko‘proq she‘rlari va kichik hajmdagi dostonlari yetib kelgan. Demakki, ma’lum bo‘lishicha G.Matyoqubova shoirning aksariyat she‘rlarini o‘zbekchalashtirgani yuksak matonat va mehnat mahsulidir.

Maxtumquli ijodi ko‘plab chashmalardan suv ichgan: bular – Qur’oni karim va unga yozilgan tafsirlar, Hadisi sharif va diniy adabiyotlar, tasavvuf falsafasi va adabiyoti, Sharq mumtoz so‘z san’ati va xalq og‘zaki ijodi. Shuning uchun shoir ijodida islomiy mavzularni ham, so‘fiyona ruhni ham, xalqona ohanglarni ham, mumtoz adabiyot ta’sirini ham ko‘ramiz – ular o‘zaro omuxta bo‘lib, Maxtumquli asarlarining yuksak badiiyati, ta’sirchanligi va umrboqiyiligini ta’minlagan. Shoir she‘rlarida payg‘ambarlar, sahobalar, avliyolar, tasavvuf pirlari, xalq qahramonlarining nomiga ko‘p duch kelamiz.

Maxtumqulining diniy-ma’rifiy she‘rlari tarjimasi orasida G.Matyoqubova qalamiga mansub tarjimalar diniy mazmuni va islomiy istiloh-tushunchalarni to‘la, aniq aks ettirgani bilan alohida ajralib turadi. Chunki u islom ta’limoti va tasavvuf falsafasidan muayyan darajada xabardor bo‘lib, mumtoz va zamonaviy adabiyot shoirasi hisoblanadi. Bularning barchasi uning tarjimalari muvaffaqiyatini ta’minlagan omillar sirasiga kiradi.

Haqiqatan ham, ba’zi juz’iy kamchiliklarni aytmasa, u Maxtumqulining diniy mavzudagi she‘rlari va misralarini deyarli asliyatga mos va xatosiz tarjima qilgan. Ayni damda, matn osti havolasida diniy-ma’rifiy va tasavvufiy istiloh hamda tushunchalarning barchasiga batafsil izoh beradi. Bu hol o‘quvchining asar mazmun-mohiyatini butun ma’no qirralari bilan tushunib olishiga imkon yaratadi. “Yer undadir”, “Afv ayla bizni”, “Rasul”, “Nazari ayla”, “Oxirzamona”, “Qalandar”, “Yoylari bordir”, “Yorlaqagil gunohimni”, “Holim mening”, “Ichinda”, “Oллоhsan”, “Nuri iymon ayladi”, “YO Rasul”, “Bir Oллоhdir”, “Bitmoq kerak”, “Oxirzamon kelar”, “Ravon bo‘ldi”, “Bilol bor”,

“Ayrilmadimi?”, “Inson yaratdi” kabi bir necha o‘nlab she’rlar tarjimasida haqida shunday deyish mumkin.

Turkman xalqining tarixi, buguni va ertasi, urf-odatlarini, an’analari, davrining muhim siyosiy-ijtimoiy hodisalari, shoirning dardu hasratlari bu she’rlarning asosiy mavzui hisoblanadi. She’rlarda shoir o‘z xalqini sevgan, uning dardu hasratlari bilan yongan, istiqboli uchun qayg‘urgan fidoyi vatanparvar sifatida namoyon bo‘ladi. Vatan va xalq mavzui – Maxtumquli she’riyatining o‘q ildizini tashkil etadi. Qator she’rlarida tarqoq turkman urug‘larini birlashishga, ular o‘rtasidagi o‘zaro nizolarni bartaraf etishga da’vat qiladi. Bilamizki, Maxtumquli she’rlarida xalq falsafasi kuchli, pand-nasihat yetakchi, u ko‘rgan-kechirganlarini qalamga olib, ular yuzasidan teran xulosalar chiqaradi. Xususan, G.Matyoqubova tomonidan tarjima qilingan “Ko‘ring”, “Bosh bo‘lma” she’rlari tarjimasida bu fikrlarning hikmat kabi jaranglashini shundan deb bilamiz:

Har yigitning aslin bilay desangiz,
Marakada o‘tirib turishin ko‘ring.
Birov bilan oshno bo‘lay desangiz,
Avval iqrorinda turishin ko‘ring... (1-jild, 202-bet)

* * *

Nasihat qilayin tinglang yigitlar,
Xotinlar boshlagan ishga bosh bo‘lmang,
Ming nasihat aytsang, birini tutmas,
Og‘zibir bo‘lmagan elga bosh bo‘lmang... (2-jild, 113-bet)

Maxtumquli xalq maqol-matallari, hikmatli so‘zlari, obrazli iboralarini juda yaxshi biladi va mahorat bilan she’rlari qatiga singdirib yuboradi. Ayni paytda, o‘zi ham sodda, ixcham, lo‘nda, teran hikmatlar yaratadiki, ular nafaqat turkman, balki barcha turkiy xalqlarning hikmatli so‘zlar xazinasidan joy olgan, G.Matyoqubova “Davron topilmas”, “Jonningdan”, “Bosh bo‘lma”, “Kelgandir” she’rlari tarjimasida shunday satrlar bor:

G‘aflat ichra g‘ofil yotma turaver,
Harna bersang qo‘ling bilan beraver,
Tiriklikda o‘lim ishin ko‘raver,
Bir kun jasad ichra bu jon topilmas... (2-jild, 16-bet)

* * *

Jahl bilan yo‘latmagil shaytonni,
So‘zga uchib unutmangil Rahmonni... (2-jild, 112-bet)

* * *

To‘g‘ri yurib, to‘g‘ri kezgan to‘q bo‘lar,

Bevaqt kezgan, ko‘p malomatga qolar... (2-jild, 113-bet)

* * *

Har kimki, gunoh qilsa, oxiri azobi behaddir... (2-jild, 146-bet)

* * *

Yigit qarir yomon ayol uchrasa... (2-jild, 302-bet)

Xalq tarixi, adabiyoti va hayotini chuqur bilgan bu donishmand inson teran fikrlarni xalqona sodda va lo‘nda bir tarzda she‘riy misralarga tizadi. Bu she‘rlar xalq donoligining yorqin namunasidir. Maxtumquli asarlarining umrboqiyiligini ta‘minlagan eng asosiy omil xuddi shunda. «Maxtumquli o‘z davrining jarohatlariga aql-zakovatni, iymon va e‘tiqodni, ahillik va hamjihatlikni, ajdodlar udumiga asoslangan hamdardlik va adolatli kurashni qarshi qo‘yadi va bu tuyg‘uni poetik so‘z qudrati bilan ma‘naviy qurol darajasiga ko‘taradi». Buni yuqoridagi she‘riy tarjimalarni o‘qiyotgan kitobxon sergaklik bilan anglab olishi qiyin emas. Guliston Matyoqubova Maxtumqulining 1983 yilda Turkmanistonda nashr qilingan Maxtumquli “Saylanma” kitobi she‘rlarini tarjima qilgan bo‘lsa kerak, sababi asliyatdagi she‘rlar tarjimasi tartiblanishiga muqoyasa qildik.

Xulosa o‘rnida: Ma‘lum bo‘ladiki, o‘zbek baxshi va xalfalari, hofiz va bastakorlari, shoir va olimlari, tarjimon va noshirlari O‘zbekistonda Maxtumquli hayoti va ijodini o‘rganish, asarlarini tarjima qilish va o‘quvchilarga yetkazish, pandu hikmat bilan sug‘orilgan chuqur ma‘noli she‘rlarini kuyga solish va kuylash, xalq ichida keng targ‘ib va tashviq qilish borasida katta ishlarni amalga oshirdilarki, sira ikkilanmay «O‘zbekistonda ham maxtumqulishunoslik maktabi vujudga keldi», deb aytish mumkin.

O‘ylaymizki, Guliston Matyoqubova tarjimasidagi Maxtumquli she‘rlari mutolaasi o‘zbek o‘quvchilariga Maxtumqulining mutafakkir va mutasavvif shoir sifatidagi hozirgacha biz bilmagan yangi qirralarini kashf etib, uning haqiqiy ijodiy qiyofasini yaxlit tasavvur etishga imkon yaratadi.